

ENG ULUG', ENG AZIZ AYYOM MUBORAK!



TONG yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
29-avgust
N:35
(66836)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası



HURLIK TIMSOLI

Qutlug' ayyom arafasida o'g'lim Nurislom, nevaralarim Jaloliddin, Jamoliddin, Kamoliddinlar bilan Mustaqillik maydoniga bordik. Bolalarga bu maydonning o'tmishi haqida qisqacha so'zlab berdim. So'ngra, ularni Vatanimizning bosh maydoni bilan tanishtra boshladim:

— Maydonga kiraverishdagi favvoralarga tutash go'zal darvoza «Ezgulik arkasi» deb ataladi. Arka tepasidagi parvoza shaylanayotgan laylaklar go'yo ozodlik va hurlikdan shodlanib, Sizni kutib olmoqda. Ular tinchlik, hurlik, jipsilik timsol. Bu ramziy timsol mamlakat, xalqimiz tinch, osoyishta yashayotganligini bildiradi. Yurtboshimiz aytganlaridek, bu ezgulik qushlari, inshoolloh, sharafli ishlarimizga yor bo'lgay, el-yurtimizga fayz-farog'at keltirsga.

Bolalarni yetaklab, ko'm-ko'k archazorlar oralab maydonning yuqorisiga qarab yo'l oldik. Qarshimizda ulkan Mustaqillik monumenti qad rostlab turardi. Yodgorlik poyidagi Vatanimiz, mustaqil ona diyorimiz ramzi — ona-bola siymosi aks ettirilgan haykal bolalar e'tiborini tortdi.

— Chindan ham go'zal va chuqur ma'noli haykal ekan, — dedi Nurislom.

— U haqda so'zlab bering, — deyishdi nevaralarim.

— Bu xalqimiz ozodligi, hurlik va erkimiz timsol — Mustaqillik monumenti. Unga Yurtboshimiz takliflari bilan barpo etilgan «Baxtiyor ona» siymosi aks ettirilgan haykal yanada ulug'vorlik baxsh etgan. Uni taniqli haykaltarosh, O'zbekiston san'at arbobi Ilhom Jabborov yaratgan. «Mustaqillik va ezgulik monumenti» deb nomlanuvchi majmua xalqimizning eng e'zozli yodgorligi.

Bolalar gulchambarlar bilan bezangan yodgorlik poyiga o'zlarini olib kelgan gullarni qo'yishdi. Atrofini aylanib, zavqlanib, tomosha qilishdi. Esdalik uchun suratga tushishdi.

Ularga yodgorlikning o'ng tomonidagi oppoq, go'zal koshona haqida ham so'zlab berdim:

— Bu hashamatlbinoda joylashgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senatida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotiga oid muhim qonunlar, qarorlar qabul qilinadi. Bu yerda o'tgan yilning noyabr oyida Prezidentimiz Islom Karimov «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini to'g'risida ma'ruba qildilar. Unda buyuk kelajak va nurli istiqbol sari intilayotgan ona yurtimiz O'zbekistonning porloq yo'li yana bir karra aks ettirib berildi.

(Davomi 2-betda)

Maydon ichra salobatlari yastanib turgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi binosi ham mamlakatimiz, xalqimiz hayotining bosh mayoqlaridan biri sanaladi.

Ularni tomosha qilishgach, bolalarni maydonning quyi qismiga boshladim. Bu yerda muqaddas ziyyaratgoh – «Xotira maydoni» joylashgan. «Motamsaro ona» haykal bolalar nigohini o'ziga tortdi.

Bu haykal ayvondagi qimmatbaho metall zarvaraqlarga nomlari bitilgan Ikkinci jahon urushida halok bo'lgan 500 mingga yaqin shahidlar sharafiga o'natalgan.

Bolalarga kitoblarda o'qigan, kinolarda ko'rgan urushning bosh sababchisi bo'lgan fashizmning yovuziyatlari, kirdikorlari haqida gapirib berdim.

Endi hech ham urush bo'lmasin, ota, – deyishdi ular og 'ir xo'srinib.

Mustaqillik maydoniga yaqin joyda ko'zga tashlanib turgan yangi muhtasham bino haqida ham so'rab qolishdi.

1. Biz Surxondaryoda bo'ldik.
 2. Dovrug'li muzej.
 3. Zarautsoy rasmlari necha yoshta?
 4. Bayramda osh pishirgan opa.
 5. Erka qizning so'zi.
- Biz, bir guruh ijodkorlar, olim va jurnalistlar, Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazining tavsiysi bilan surxondaryolik tengashshlar, ularning murabbiylari, ota-onalari, mahalla ahli, mutasaddi tashkilot vakillari bilan uchrashrib keldik. Bu uchrashuvlar juda zavqli va hayajonli o'tdiki, har bir yig'ilish, suhbat va o'zaro mulogoltardan olam-olam zavq oldik va quvonchimizni sizlarga ham ulashishni lozim topdik.*

Surxondaryolik bolalar bilan suhbatlashar ekanmiz, gap aylanib kelib, gazetamiz xususida to'xtaganda, ularning yuzlarida mammunlik ifodalarini ko'rdik.

Men gazetaning har bir sonini o'qib boraman, – deydi o'zini to'rtinchisinf o'quvchisi Dilshod deb tanishtirgan bolakay. – «O'quvchi yon daftariqa», «Quvnoq tanaffus» sahifalarini, she'r va hikoyalarni qiziqib o'qib boraman.

Juda xursand ko'rinasan, Dilshodjon?

Hammyaoq juda go'zal, Mustaqillikning 20 yilligi arafasida shahrimiz kundan-kun yashnab boryapti!

Bola qalbi beg'ubor, to'g'risini aytadi, haqiqatan ham, Termiz shahri niyoyatda ozoda! dilni maftun etuvchi yashil maydonlar, tekis, ravon ko'charlar, oppoq favorolar, yangi zamonaliviy mehmoxxonalar, ovqatlanish shahobchalari-yu bekatlari ko'zni quvontiradi.

Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan Termiz Arxeologiya muzeysi bizni niyoyatda hayratga soldi. Muzej Termiz shahrining 2500 yilligi arafasida 2002-yilning 2-aprelida ochilgan edi. Bu yerdagi noyob eksponatlar qadim tariximizdan saboq beradi.

Muzeysda 17-avgust kuni «Mustaqillik yillarda Surxondaryo viloyatida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar» mavzuida foto-rgazma ochildi.

Yoshlar guruh-guruh bo'lib kelishdi. Hokimiyat vakillari, murabbiylar,

HURLIK TINNSOLI



Bu go'zal koshona Alisher Navoiy nomidagi respublika kutubxonasingin yangi binosi, – dedim men ham hayratimni yashirolmay. – Bunday ulkan va barcha qulayliklarga ega bino, ma'naviyatga boy xazina nafaqat mamlakatimizda, balki O'rta Osiyoda ham mavjud emas. U o'zida 6,5 million nusxadagi kitoblarni saqlash imkoniyatiga ega. Barcha qulayliklarga ega 16 ta mutolaa zali mavjud. Bu ziyo

olimlar mustaqillik yillarda xalqimiz erishgan yutuqlar, tariximizga bo'lgan munosabatlari xususida ma'ruza qilishdi.

Biz tarixan madaniyat, ilm-ma'rifati, egzusevar xalq bo'lganmiz, ammo, aziz bolalar, quruq so'z bilan birovni ishonishirish qiyin. Ana shunday paytlarda bizga boy tariximiz yordamga keladi. Birgina misol: muzeydagi miloddan avvalgi IV asrda yasalgan sopol vanna mavjud. Bundan to'rt ming yil oldin-a, tasavvur qilasizmi??

merosxo'rلارımız; shunday ekan, ulug'-larning ishlarini ulug'ligicha davom ettirish burchimizdir.

Bu yerda biz yoshlardan biri – Xolida Muhammadiyeva bilan suhbatlashdik. U 2003-yildan buyon viloyatning «Sario-siyo», «Bobotog' tongi», «Termiz oqshomi» gazetalarida muntazam qatnashib turar ekan. «Istiqlol yillarda bunyod etilgan muzej shahrimiz faxri hisoblanadi. Naqadar ulug'ver, ko'rkan bino. Undagi

O'N MING YILLIK RASMLAR

Qo'rg'onzol yodgorligi bo'lmish mazkur vannanining topilishi juda katta shovshuvlarga sabab bo'ldi. Yoki Tiliabulog yodgorligidan topilgan qadimiyo muhrchi?! Mazkur muhr miloddan avvalgi uchinchi ming yillik boshlarida yasalgan ekan. Demak, o'sha qadim zamonlarda ham ota-bobolar qonunga, odamiylikka, ezgulikka rioya etishgan. Zarautsoy yodgorliklari esa olamga mashhur. Termizlik olimlar 200 dan ortiq mazkur qoya rasmlarning yoshini o'n ming yildan ortiq deb hisoblamodalar. Bir narsaga e'tibor bering: bundan o'n ming yil burun muktab, ustoz ko'rmagan kishilar qanday qilib bunday hayratlanarli rasmlarni qoyalarda muhlab qoldirishlari mumkin edi?! Yoki bunisiga e'tibor bering: o'n ming yildan buyon qizg'ish ranglar asliday turibdi. Ilmsiz kishilarning shunday o'chmas bo'yoglarni tayyorlashlarini aqlga sig'dirib bo'lmaydi. O'zingiz mulohaza yuriting: demak, bundan o'n ming yil burun Surxondaryo hududida tabiat va koinot sirlarini o'rganadigan maktablar mavjud bo'lgan, degan taxminni ilgari surish mumkin. Termizlik olimlarning bu qarashlariga e'tiroz bildirish qiyin, deb o'ylyaman.

Xo'sh, ukajonim: gapning indallosi shuki, sen ham, biz ham o'sha qadim, ulug' ajdodlarning davomchilari, Zalda gulduros qarsaklar yangradi. Ko'zlarda mehr, lablarda sevinch nurlari jilo qildi. Qanday ajoyib, yurtparvar zamondoshlarimiz bor-a?!

noyob asori-atiqalar meni doimo hayratga soladi», deydi u g'urur bilan.

Sho'rchi tumani Madaniyat saroyida o'tkazilgan uchrashuvda Ozoda Hakimova quyidagi qiziq voqeani gapirib berdi:

«1991-yilning 1-sentabr kuni edi, bolalarga muktab bozori qilishga bordim. Yo'lda tamaddi qilish uchun oshxonaga kirganimda, yonimda o'tirgan ikki dehqonning gaplari diqqatimni tortdi: «Xudoga shurkrki, shu kunga ham yetdiq, Mustaqillik bayrami muborak, oshna!» deya o'rtog'ini tabrikadi biri. Ikkinchisi esa:

– Yoz bo'yi g'o'zalarga suv taradik, rejani uddalaylik, bayramga sovg'a bo'lsin! – dedi.

Turib-turib bu gaplari menga ta'sir qildi. Oliy ma'lumoti bo'lsam-u, men bu kunni shunday o'tkazsam, qanday bo'larkin, degan o'y bilan o'rniordan turib, qayta bozorga bordim-da, guruch, sabzi xarid qilib, yuga keldim va osh damlab, bolalarim bilan Mustaqillikni bayram qildik!»

Zalda gulduros qarsaklar yangradi. Ko'zlarda mehr, lablarda sevinch nurlari jilo qildi. Qanday ajoyib, yurtparvar zamondoshlarimiz bor-a?!

Sariosiyo tumanida barpo etilgan «Yoshlar bog'i» haqida allaqachon butun respublika eshitdi. Quyosh qizdirib

TARIX TILGA KIRGANDA...

maskani istiqlol yillarida yaratilgan va Mustaqilligimizning 20 yilligiga munosib tuhfa bo'lgan eng qadrli mo'jizalardan birdir.

So'ngra, ona Vatanimizda tinchlik va osoyishtalik bo'lishi uchun tinimsiz mehnat qilayotgan Yurtboshimizning sa'y-harakatlari haqida ham qisqacha so'zladim.

Shuningdek, yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan buniyodkorlik ishlari, ko'priklar, temiryo'llar, chet elnikidan qolishmaydigan samolyotlar, avtomashinalar, traktorlar, elektron texnikalar, yengil sanoat mahsulotlari haqida ham keng tushuncha berdim.

Bolalar tinch-osoyishta ona yurti – O'zbekistoni borligidan faxrlariib, g'ururlanib qo'yishdi.

Mustaqilligimizning 20 yilligi arafasidagi sayr-u sayohatimiz bolalar qalbida bir umrga muhrlanib qolsa, ajabmas.

Jabbor RAZZOQOV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



turganiga qaramay bu yerdagi bolalar va o'smirlar ko'pchilikni tashkil etadi. Arg'imchoqlar bir daqiqa timaydi. Olti gektardan ortiq maydonga ekilgan rangbar gullar, manzaralari daraxtlar ko'zni qamashtiradi. Bizga bolalar uchun tayyorlangan jonli burchakni ko'rsatishdi:

– Bu yer allaqachon yoshlarning sevimli maskaniga aylanib ulgurdi, kechqurun ishdan so'ng bog'imiz otanalar, yoshlar, bolalar va o'smirlar bilan to'lib-ketadi. Avvallari kelin-kuyovlar gul qo'yish uchun qo'shni tumanga borib kelishardi. Bog'imizda «Ona» haykal qad ko'targach, yoshlarimiz bu yerga qanday ranjida qilishmoqda.

Tuman pedagogika kollejida o'tkazilgan yig'ilishda tengoshingiz Sayyora Mahmudova so'zga chiqib, xalq termalaridan aytilib berdi. Bizga hamrohlik qilgan filologiya fanlari doktori, olim akangiz Jabbor Eshonkulov xalq orasidagi hali o'rganilmagan shunday termalarni to'plashda o'quvchilarimiz biringchilar qatorida yordam bermoqliklari lozimgilagini ta'kidladi.

Yangi avlodning qadamlari shaxdam, qarashlari jiddiy, eng muhimi, ularning suyangan tog'lari, hayotga ishonchlarini porloq kelajaklari bor. Vatan so'zi ularning tillarida niyoyatda nafis va ulug'ver jaranglaydi. Aziz ona Vatan! Sening yigirma yoshingni ko'rib turgan har bir farzanding O'zbekiston degan sharafli nominingi faxr bilan tilga olayotganini ko'rib, ko'ngillar shodlikka to'ladи. Bu yoshlar sening ishonchingda bunga o'zing ham guvoh bo'lib turibsani!

Bayram barchangizga muborak bo'lsin!

To'lgin HAYIT

Aziz o'quvchilar!
Barchangiz maktabni tamomlagach, oliyogohlarga kirib o'qishni orzulaysiz. O'z kasbining yetuk mutaxassisini bo'lib, kelajakda ulkan yutuqlarga erishish esa faqat a'lochi talabalariga nasib etishini ham bilasiz-a?

Siz yoshlarning puxta bilim olishingiz, iqtidor va salohiyatingizni to'la namoyon etishingiz uchun mamlakatimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Yosh avlodni rag'batlantirishga ham katta e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Ibn Sino nomidagi Davlat stipendiylarini bunga yaqqlan misol qilishimiz mumkin. Ana shunday imtiyozlarga javoban yoshlar ham o'z bilimlari, iqtidorlarini namoyon etib, ulkan natijalarga erishib kelmoqdalar.

Bugun e'tiboringizga yosh bo'lishiga qaramay, ulkan yutuqlarga erishib kelayotgan talabalar bilan suhbatiyizni havola etmoqdamiz. Ular bosib o'igan yo'llar, erishgan yutuqlari sizga ham ibrat bo'ladi, degan umiddamiz.

Sahifamiz mehmonlariga quyidagi savollar bilan murojaat qildik:

1. Maktabda o'qigan vaqt-laringizdagi qiziqlar va yodda qolgan xotiralaringiz...
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyati bo'lishingizdagi dastlabki qadamlaringiz haqida nima deya olasiz?

Onam halim ayol edilar. Biror marta ovozlarini ko'tarib gapirganlarini hech birimiz esolmaymiz. Yaxshi odatlari qatorida bittasini hammamiz juda yaxshi ko'rardik. Ancha ilgari bo'lib o'tgan voqeа haqida gapirganlarida, albatta, esimizda golishi uehun yana biror qiziqrоq hodisani qo'shib gapirardilar.

«O'sha yili qor qalin yoqqidan uydan chiqolmay qolganmiz» yoki «O'shanda hovlimizdagi olma daraxti ko'p meva solganidan majnuntoldek egilib qolgan edi» kabi iboralar bilan boyitilgan voqeа bir umrga yodimizda muhrlanib qolardi.

Eslasang, ko'ngling yorishadigan xotiralar bo'lgani qanday yaxshi! Jajji qo'lchalar bilan ota-onasi, aka-oparining qo'lidan mahkam ushlab olgancha ilk bor maktab tomon yo'l olgan bolajonlarni ko'rib, shu gaplar xayolimdan kechdi. Bugungi o'quvchilarning omadiga



Vatan tuyg'usi ona allasi orqali

farzand qalbiga jo bo'lgay!

Sinf rahbarimiz Malika opa Asa-dillayeva, ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Atirgul opa, ingliz tili muallimamiz Sayyora Badalova o'z kasblarining haqiqiy fidoyisi edilar. Ular bergan bilimlar oliyogohga imtihon topshirgan paytimda asqotgan. Magistraturada o'qib yurgan kezlarim oynayi jahon orqali Prezident stipendiati Furqa Samadov haqida ko'rsatuvni ko'rgandim. Unga havas qilib, men ham, albatta, Prezident stipendiati bo'lamon, deb oldimga maqsad qo'yanman. Astoydil intilib, maqsadimga erishdim...

ridagi 1-sonli litseyda o'qishni davom ettir-ganman. Bolaligimda esda qolarli qiziq xotiralarmi mana shu qadrdron maskanda bo'lib o'tgan. 7-sinfdan «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi, 8-sinfdan esa «Kamolot» YOIH raisi bo'lganman. O'sha vaqtarda kuni kelib men ham Prezident stipendiati bo'lismay xayolimga ham kelmagandi. Chunki bunday reja menda hech qachon bo'limgandi. Universitetda o'qib yurgan kezlarim ilk kitobim chop etilgandi. Bu menga ilhom bag'ishlab, xayolimda birdan Prezident stipendiyasiga harakat qilish fikri uy-

PREZIDENT STIPENDIATLARI

ular bu nomga qanday sazovor bo'lganlar?

A'zamjon MAHMUDOV
1984-yil 22-iyulda Toshkent shahrida tug'ilgan. Yunusobod tumanidagi Humoyun nomli 302-maktabni tamomlab, 1999-yilda Toshkent Davlat tibbiyot instituti qoshidagi tibbiyot litseyi, 2001-yilda esa mazkur oliyogoh talabasi bo'lishga muvaffaq bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati.

— Maktabda a'lo baholarga o'qish uchun chindanom ko'p dars tayyorlardim. Bu boroda menga onam yordam berardilar. Ma'lum vaqtgacha ota-onamning nazoratlari ostida dars tayyorlagman, keyinchalik ular ishdan kelishlarini kutmasdan uy vazifalarini mustaqil bajara boshlaganman. Oilamizda ajoyib haftaliklar o'tkazib turilar edi: bunga ko'ra eng ko'p «5» baho olgan farzand rag'batlantirilardi. Shuning uchun ham har kuni maktabdan kelganimda, uy vazifasini tezroq bajarib, ertangi kundagi mavzuni ham o'qib olardim. Tabiiyki, ertasi kuni sinfdoshlarim savollarga javob bera olmaganlarida, menda, albatta, javob bo'lar edi...

Darsdan keyin esa suv havzasiga suzishga borardim. Bu qiziqlishim bora-bora kuchayib, 1-darajali suzish ustasi bo'lishim gacha olib kelgan.



Shohruh GULOMOV
1988-yil 10-sentabrda Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanida dunyoga kelgan. O'qchi qishlog'i-dagi 58-umumta'l'm maktabida boshlang'ich sinfni tugatgach, 4-sinf dan Yaypan shahridagi 1-sonli litseyda o'qishni davom ettir-gan. 2006-yilda Jahan iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga byudjet asosida o'qishga kirib, talabalik

baxtiga tuyassar bo'ldi. 2010-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiati bo'lgan. Hozirda shu universitetning magistratura yo'nalishi talabasi.

— O'quvchilik davrim juda qiziqlar o'tgan. Dastlab Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumanı, O'qchi qishlog'i-dagi 58-umumta'l'm maktabida boshlang'ich sinfa o'qiganman. 1-sinfdan sinf sardori bo'lganman, 4-sinfdan esa Yaypan shah-

g'ondi. Shu kunga qadar yozgan bir nechta maqlolarim, «Mehr nuri» hamda Fond Forumning iqtidorli talabalar stipendiati ekanligim ham qo'l keldi. Bu orada Buyuk Britaniyaning London shahriga O'zbekiston elchixonasi tomonidan yozgi amaliyotni o'tash uchun yuborildim. O'zbekistoniga kelgach, charchoqlarimga qaramay, yozgi ta'ilni bir chetga surib, Prezident stipendiyasiga yasiga sazovor

bo'lish uchun qattiq tay-yorlandim... Ushbu stipendiyani qo'lga kiritgan kunim hayotimdagidagi eng quvchoni kurnidan biriga aylanib qoldi. Shuning barobarida mukofot zimmamga juda katta mas'uliyatni yukladi. Ota-onam, do'starim, ustozlarimning mendan umidlari katta, degan fikr hanuz menga yangi kuch bag'ishlab kelmoqda...

Gulyuz BAHODIR qizi yozib oldi



havasim keldi. Ularning chuquq ilm olishlari, kelajakda komil inson bo'lib yetishishlari uchun barcha shart-sharoitlari muhayyo qilingan. Zamон talablari darajasidagi maktablar ular ixtiyorida. Izlanuvchan va puxta bilinga ega ustozlar o'zlarida borini ularga berishga hamisha tayyor turishadi.

Bolajon! Ilm yo'lida shaxding sira so'nmasisin!

Maktab o'ziga yarasha ajib bir olam. U kundan-kunga sen uchun qiziqlar bo'lib boraveradi. Zerikish nimaligini ham bil-

maysan. Ammo zimmangaga yuylanayotgan mas'uliyatni ham his qilyapsanmi, bolajon? Sen mamlakat Istiqolining 20 yillik bayrami kunida maktabga bormoqdasan. Bu kun bir umr yodingda golishi shubhasiz.

Oradan yillard o'tadi. Kuni kelib faxr va iftixon bilan, men Istiqolning 20 yilligi bayramida ilk bor maktabga borganman, deya maroq bilan xotirlaysan. Eslasang, eslaguday, shunday emasmi?

Yusuf ABDULLAYEV

BEG'UBOR OLAM

Vatan – insonning kindik qoni to 'kilgan mugaddas zamin. Dunyoda Vatan va ona bitta bo'ladi, bu so'zlar hech qachon qadrini yo'gotmaydi.

Non doimo aziz, tansiq bo'lganidek, bu so'zlar ham har qancha aytilsa-da, qimmati pasaymaydi, ikkisi ham dilga jo bo'lgan bebafo durdonadir. Vatanning eng suyukli zotga qiyoslab, «ona Vatan» deymiz. Zero, Vatan tuyg'usi ona bag'ri, mehri, allasi orqali farzand qalbiga, ong-u shuhriga jo bo'lgay.

Vatanning ta'rif-tavfsi ham ko'p: ona Vatan, ona zamin, ona yer, ota yurt, ona tuproq, jonajon o'lka, tug'ilgan diyor kabi o'nlab nomlar bilan ataladi u.


Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy:

«Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakati shul kishining Vatani hisoblanur», deya ta'rif bergan unga.

Vatan shunday beg'ubor olamki, u yaxshi va yomonni ham, quvchon va tashvishlarni ham o'z bag'riga sig'diraveradi.

Mohina MAXSUDOVA,
Respublika musiqa va san'atga
ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi

TENGDOSHINGMAN, ISTIQLOL!



HAVAS BILAN YASHANG

O'smirlik davrida ham vazminligi, har bir gapini chugur o'ylab, mulohaza qilib gaphirishi, darslarga mas'uliyat bilan yondashishi bois, poytaxtdagi o'zi tahlil olgan 18- hamda 102-maktablardagi tengdoshlari orasida hurmat qozondi. Ingliz tilini puxta o'rghanishga bel bog'lagan Shavkatjon maktabda o'tkazilgan fan olimpiadasida 1-o'rni egallab, bilim dargohi sharafini munosib himoya qididi.

Sir emaski, kimyo ancha murakkab fan bo'lgani uchun ham ayrim o'quvchilar o'zlashtirishga qiyalishadi. Bu fanga qiziqichilarining unchalik ko'p bo'lmasisligi ham balki shundandir. Shavkatjonning esa eng sevimi fani kimyo! Bu fanga qiziqishida balki 40 yil maktabda bolalarga aynan shu fandan saqo bergan Azimjon bobosining ta'siri bo'lgandir. Nabirasidagi ishtiyoqni o'z vaqtida payqagan bobosi tushunmay qolgan mavzulari tushuntirib berar, turli kimyoiyi tajribalar o'tkazib, qiziqishini yanada oshirishga intildi.

Odatda barcha bitiruvchilar qarshisida ko'ndalang tur'dig'an «Kim bo'lsam ekan?» degan savol Shavkatjonnini uzoq o'ylantirmadi. Maktabni tamomlab, hech ikkilanmay hujjalarni Toshkent kimyo-teknologiya institutiga topshirdi. Ustozi Nortoji Xo'jamshukurov boshchiligidagi «Suv o'tlarini o'stirishga ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish laboratoriya markazini tashkillashtirish» loyihasini tayyorlab, Kichik bizes va xususiy tadbirkorlik yili munosabati bilan «Aloqabank» tomonidan o'tkazilgan «Talabalarning eng yaxshi innovatsion loyihasi» tanloviga taqdim etdi.

—Maqsadimiz,—deydi Shavkatjon loyha haqida kengroq to'xtalib, —O'zbekiston Respublikasi hududida noan'anaviy usulda oziq-ovqat sanoati uchun oqsil, vitamin va fermentga boy qo'shimchalar, antioksidant preparatlari, farmasevtik dori vositalari uchun manbalar (jumladan, saraton kasalligining oldini oluvchi vositalar), o'simliklarni himoya qilish vositalari, o'sishini rivojlaniruvchi manbalar, o'simliklarni turli zararli organizmlar ta'siridan himoyalovchi vositalar, shuningdek, chorvach-

ilki ni rivojlantrish maqsadida to'yimli ozuqa yemi qo'shimchalar hamda kimyo sanoati uchun antioksidant preparatlari tayyorlashda o'ta muhim va tannarxi arzon, ekologik toza, raqobatbardosh texnologik liniyani shakllantirish va ishga tushirishdan iborat. Loyihada suv o'tlarining qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati, tibbiyot va farmasevtika sohasida ishlatalishi haqida so'z boradi. Ozuqa yemi qo'shimchalar (oqsil, ferment va vitaminli) ishlab chiqarish borasidagi izlanishlar yakunlanib, yaxshi natijalarga erishildi.

Mazkur loyha doiriasida rejalashtirilgan ishlar 2011-yil oxirigacha tugatilish, dastlabki mahsulot 2012-yilning birinchi choragida ishlab chiqariladi. Mahsulotning xususiyatidan kelib chiqib, jumladan, quyidagi natijalar kutilmoqda:

Chorva mollarini oziqlantirishda umumiyoq og'irligi 25-40 foizga, sut mahsulorligi 15-20 foizga, parrandalaming umumiyoq og'irligi 18-20 foizga, taxumlarining og'irligi 10 foizga, o'simliklarning o'sishini boshqarish orqali hosildorlik 12-14 foizga oshadi.

Bu raqamlarni keltirishimizdan maqsad, Sizlarni Shavkatjon olib borayotgan izlanishlarning mazmun-mohiyati! Bilan biroz bo'lsa-da, tanishtirishdan iborat.

Uning aytilishicha, tabiatda suv o'tlarining yuzlab turlari mavjud ekan. Usbhu loyha esa ulardan faqat ottasi misolida, ikki xil mahsulot olishni mo'ljallagan holda ishlab chiqilibdi. Endi bir tasavvur qiling-a, Shavkatjon singari iqitorli yoshlarmiz, olimlarimiz suv o'tlarining boshque turlari borasida ham ilmiy izlanishlar olib borib, qishloq xo'jaligiga tadbiq etishsa, iqtisodimiz, qolaversa, yurtimiz rivojiga qanchalar hissa qo'shiladi...

Aziz o'quvchilar, talabalik partasidanoy yurt ravnaqiga hissa qo'shish niyatida izlanayotgan Shavkatjon akangizga havas qilib, Sizning orangizdan ham ko'plab intiluvchan, izlanuvchan yoshlari yetishib chiqishiga amimiz. Ilm cho'qqilar sari dadil intilayotgan yosh olimimiziga esa ulkan yutuqlar tilab qolamiz.

Feruza JALILOVA

VATANIMNING YURAGI

Men yigirma yoshdaman. Bu mening qalbinni ikki karra quvonchga to'ldiradi. Zero, bunday baxtga mayussat tengdoshlar qatorida bo'lish menga cheksiz g'urur va ifixtor bag'ishlaydi. Hozirda respublika miyosida o'tkazilayotgan turli ko'rik-tanlovlarda ishtirot etib kelyapman.

«Kamolot» yosholr ijtimoiy harakati tomonidan o'tkazilayotgan qator tanlovlar, badiiy kechalar g'olib bo'lish nasib etdi. Bu esa meni adapiyotga, she'riyatga, jurnalistika sohasiga bo'lgan qiziqishimi orttdi.

«Vatanimning yuragi» nomli ilk she'riy to'plamining nashrdan chiqishi esa meni sevintirdi.

Bugun barcha tengdoshlarimga, bayramingiz muborak bo'isin, deyman.

Sitora RAHMATOVA,
Surxondaryo viloyati, Denov shahri

ORZU QILSAK YARASHAR...

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Marg'ilon shahar

Shohista Akramova Farg'ona viloyati, Toshloq tumani, Qo'qonlik qishlog'i idagi 37-umumta'l'm maktabini a'lo baholarga tamomlab, ayni paytda hamshiralik kursida tahsil olmoqda.

—Yurtimizning tinchlik hukmron bo'lsa, barcha orzu-niyatlar, albatta, ijobat bo'ladi. Shundan ekan, har qancha orzu qilsak yarashadi. Men kelajakda tibbiyot olyigohiga kirib o'qishni maqsad qilganman, —deydi Shohista ishonch bilan. —Bu yo'lda timmay o'qib o'rganmoqdam. Harakatim o'z samarasini berishiga aminman.

Bolalarning sevimli shoirasi Kavsar TURDIYEVA ham istiqloldan ilhomlanib, qalam tebratayotgan ijodkorlardan biri. Uning ko'plab she'rularini «Tomosha» bolalar folklor guruhi qo'shiq qilib ijro etgan. Quyida ulardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etmoqdamiz.



MARD O'G'LONLAR BO'LAMIZ

Tog'ni baland demangizlar,
Istasangiz chiqasiz.
Raqiblarni kuchli demang,
G'ayrat qiling, yengasiz.
Mard bo'linglar, botir bo'ling,
Shu otangiz tilagi!
Ezgu ishga qodir bo'ling,
Yigitga shu keragi.

– Ha, dadajon, qo'rqmaymiz biz,
Mard va polvon bo'lamiz.

Ishonchingiz oqlash uchun,
Kuch-qudratga to'lamiz.

Nazorat:

Ha, albatta, ezgu niyat,
Zo'r insonlar bo'lamiz.
El-yurtimiz orzu qilgan
Mard o'g'lolar bo'lamiz.

Sher bolasi ovni yengar,
El bolasi yovlarni.
Yo'llarida uchrab o'tgan,
Barcha to'siq, g'ovlarni.
Chiniqinglar, mashq qilinglar,
Mardning ishi mehnatda.
Xalqni e'zoz qilgan inson,
O'zi bo'lar izzatda.

– Ha, dadajon, elimizga
Sodiq o'g'lom bo'lamiz!
Chiniqamiz, mashq qilamiz,
Mard-u maydon bo'lamiz!

Nazorat:

BU BIZNING O'ZBEKISTON!

– Qaysi yerning onlari
Kiritadi jonlarni?
– Minorlari baland,
Bu sayqal Samarqand!


– Qayerning zardo'zları
Shirin-shakar so'zları?
– Mashhurdir dunyo aro,
Budir qadim Buxoro!

– Ayting, qaysi navolar
Dilingizdan joy olar?
– Javobi juda oddiy,
Albatta, oltin vodiy!

– Alpomishning yeri u,
Changovuzning eli u.
Tog'lari qalqon go'yo
– Albatta, Surxondaryo.

Naqorat:
Yalo-yalo, yalola
Yangrar sho'x navolar
Barisi go'zal bo'ston
Bu bizning O'zbekiston,
Bu bizning O'zbekiston!

– Qaysi yerning lazgisi
Mo'jizaning naq o'zi?



– Bu el juda ham azim,
Hamma bilar Xorazm.

– Qaysi yerda kulollar,
Guldan naqshlar solar?
– Shahrisabz – yashil dunyo
Bilamiz – Qashqadaryo.

– Bermasangiz ham savol
Bilamiz, bir o'lka bor.
Dostonlarning eli bu-
Qoraqalpoq yeri bu.

Mehmondo'st, saxiy eli
Egilmas mag'rur dili
Toshkent – gul shahar,
Toshkent – nur shahar.
Naqorat:



SENI SHUNDAY SEVAMAN!

Boshing uzra ketmas humolaring bor,
Chamanlarga qiyos gul-bog'laring bor,
Har qarich tuprog'i muqaddas diyor –
Senga fido bo'lsin bu jonom, tanim,
Jannatlarga qiyos, ozod Vatanim!

Quyoshi balqigan tonggi saharsan,
Muqaddas makonsan, bag'ri bahorsan,
Samodek musaffo iliq nahorsan –
Duogo'y validam o'zingsan manim,
Mustahkam qo'rg'onim, obod Vatanim!



SHOIR ATAMA!

Parcha yeringga fido,
Etolmasam jon-u tan.
Dovyurak deb o'g'lonim –
Botir atama, Vatan!

Ko'tarmasam ko'klarga,
Nominingi ham chin dildan.
Boram meni har ishga,
Qodir atama, Vatan!

O'g'ling bo'lib ko'ksingi,
Qilolmasam gul maskan.
Doim ezgu ishlarga,
Doir atama, Vatan!

Qiyosingni topmadim,
Bunday Vatan yo'q ekan.
Sha'ningga she'r bitmasam,
Shoir atama, Vatan!

Baxtiyor NASRIDDINOV,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani

Buyuksan, buyuklar ulg'aytgan o'zing,
Halollik, poklikka o'rgatgan o'zing,
Bunchalar totlidir bergen non, tuzing –
Nomi doston bo'lgan hur o'lkam manim,
Yetti iqlim ichra tengsiz, Vatanim!

Yuksalding, ko'klarga yetdi bo'yaling,
Baralla yangragay hurlik kuylaring,
Bugun nishonlaymiz qutlug' to'yaling,
Gullagan gul-bog'im, go'zal chamanim,
Ifori yoqimli, xushro'y Vatanim!

Umida UMRZOQOVA,
O'zDITU qoshidagi 1-sonli akademik
litseyning 2-bosqich talabasi



YIGIT YOSHING MUBORAK!

Yurtlar, ellar aro nomi ulug' el,
Yerga ekkan bug'doy, noni ulug' el,
Oftob nurlaridan nurlangan chaman –
Bu bizning Vatadir, bu bizning Vatan!

Chamandek gullagay tinchlik bog'imiz,
Yurtboshimiz bizning suyanch tog'imiz,
Jannah qayda desalar, mag'rur aytaman:
Bu bizning Vatadir, bu bizning chaman!

Yeriga cho'p suqsak, bog' bo'lgan diyor,
Bobolarning ruhi bizga doim yor,
Zamini bebaboh boyliklarga kon,
Yigit yoshing muborak, hur O'zbekiston!

Mohimoy TOPILOVA,
Toshkent viloyati, Parkent shahridagi
9-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MO'JIZA YURT

Gul yuzingga boqsam, quyoshaan,
Nurlaringdan ojiz, nigohim.
Besigim ham yaralgan sendan,
Onajonim allasi Vatan!

Qadrin boqiy, ajib sehring bor,
Mo'jiza yurt, ona mehring bor.
Kulgichimda shodon kulging bor,
Yuragimning yallasi Vatan!

Shamolinda sochimni yoyib,
Quchoq ochib ko'zlarim yumsam.
Borim deya, mehringga to'yib,
Bo'yalingni quchsaydim, Vatan!

Vaqtga tinchlik teng bo'lsin sherik,
Baxtimizga tinch bo'lsin dunyo.
Yashayapman jismingda tirik,
Boshim uzra bedorim, Vatan!

Ne'matlaring totli, bebaho.
Bog'laringni sevaman jondan.
Bahorlarining farishta go'yo,
Suyukligim o'zingsan, Vatan!

Kim bildi yovlarning ko'nglin,
Tuprog'ingga go'yganda qadam.
Tutgan balkim jallodning yo'lin,
Tariximiz so'ylab ber, Vatan!

Toliqtisra tashvishlar meni,
Taftim olar pok mehring seni.
Kafgtinangdan izlasam neni,
Menga tutding bog'bonim, Vatan!

Nafisa RUSTAMOVA,
Surxondaryo viloyati

Aqlingni ISHQA SOL



– Dada, men bo'lsam katta,
Niyat qildim, albatta,
Oq bulutdan ot qilib,
Qog'ozdan qanot qilib,
Osmonda uchmoqchiman,
So'ngra o'tib quyoshga,
Olov usfrib tongga
Ismimi yozmoqchiman,
Nur konin kezmoqchiman,
Uyga qaytar chog'imda,
Yulduzlar quchmoqchiman,
Guldek ochilib kelsa,
Mehnatimni el bilsa,
Nima deysiz, Siz, aytung?
Menga biror so'z aytung?
– Nima dey? – dedim, – bolam,
Sening qo'lingda olam,
Doim a'lo o'qisang,
Fan sirin puxta bilsang,
Niyatingga yetasan,
Ko'kni ham zabt etasan.
Hozir puxta bilim ol,
Bor aqlingni ishqa sol!

Ibrohim DONISH,
Jizzax viloyati

ISTIQLOL FARZANDLARI FESTIVALI

olajonlar! Xabaringiz bor, kuni kecha poytaxtimizda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, «Nuroniy» jamg'armasi, O'zbekiston Musulmonlari idorasi, «O'zbeknavo» estrada birlashmasi, «O'zbekteatr» birlashmasi hamkorligida ilk bor «Istiqlol farzandlari» yoshlar festivali bo'lib o'tdi. Festivalda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yetakchilari va faollari, umumta lim maktablari, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalar quruvchilari hamda oliy o'quv yurti talabalari ishtirok etdilar. Uni o'tkazishdan asosiy maqsad, yoshlarni yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamdag'i o'zgarishlar: buningkorlik ishlari, yoshlarning bilim olishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan tanishirish, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti yo'lida o'z hissalarini qo'shayotgan intellektual salohiyatlari, iqtidolri va faol yoshlarni rag 'batlantirish va qo'llab-qurvatlashdan iborat bo'ldi.

Uch kun davom etgan festival ishtirokchilari Mustaqillik maydoniga, «Temuriylar tarixi» muzeyiga, «Shahidlar xotirasasi» yodgorlik majmuasi hamda «Qatag'on qurbanlari» muzeyida bo'ldilar. «Nuroniy» jamg'armasi tomonidan tashkil etilgan «Uch avlod uchrashuv»da nuroni otaxonlar hamda O'zbekiston Qahramonlari bilan yurtimizning o'tmishi, buguni va kelajagi haqida qizg'in suhabat o'tkazdilar.



AMOLOT

Turin politexnika universiteti talaralarining ta'lim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan tanishdilar.

Shuningdek, Hazrati Imam majmuasi ziyorati, o'zbek milliy drama teatrining taniqli aktyorlari bilan uchrashuv hamda spektakl namoyishi ham yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Muhtasham Turkiston saroyida Vatanimiz obro'si, shon-shuhrat va sharafini yuksaltirishga hamda uning xalqaro nu-fuzini oshirishga xizmat qilayotgan, yurtimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, namuna ko'rsatayotgan yoshlarni «O'zbekiston belgisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Mustaqillik bayrami arafasida «Nihol» mukofoti sovrindori bo'lgan iste'dodli san'atkorlar ishtirokida gala-konsert y'gilganlarga o'zgacha zavq-shavq ulashdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

Bir kuni buvimning katta qutidan jildlari eskirib ketgan kitoblarni olib o'qiyotganlarini ko'rib qoldim. Ular dan birini varaglasam, arab alifbosida yozilgan ekan.

- Bu kitoblarni qanday o'qiyisz, tushunarsiz-ku? - so'radim kitobni ko'zdan kechirib. Buvijonim bu kitoblarning tarixi uzoqlarga borib taqalishini so'zlab berdilar...

UYINGIZDA KUTIMAGAN KO'PMI?

Buvim biz tengi paytlarida, kitob topib o'qish amrimahol bo'lgan ekan. Ko'philinkning savodi bo'lmaganligi uchun qo'shnilar yig'ilishib, buvilmarnikida kitobxonlik qilishgan ekan. U davrda uyida kitob saqlaganlari «Vatan xoini» deya sotqina chiqarib, oilasi bilan yo'q qilishar ekan. Shunday kunlarning birida jajigina qizaloq bo'lgan buvimdan bir notanish odam: «Uyingizda kitoblar ko'pmi, kechalari ko'p kitob o'qisizlarimi?» deb so'rabdi. Shunda katta bobomning: «Qizim, notanish odamlar kitoblar haqida so'rashsa, men hech narsa bilmayman, deb javob bergin», deya tayinlaganlari eslariga tushibdi.

- Men hech narsa bilmayman, - deya

31-Avgust - Qatag'on qurbanlari yod etish kuni

dugonalarining yoniga yugurib ketibdar buvim.

Xullas, o'sha kuni kechasi buvilmarnikiga «kutilmagan mehmonlar» tashrif buyurib, hammayoqni ag'darto'ntar qilishibdi. Ularning orasida buvimmni so'roqqa tutgan kishi ham bor ekan. Uy ichidan ham, tashqaridan ham hech narsa topa olishmasa-da, katta bobomni o'sha paytlarda el orasida «Qora qarg'a» deya xunuk nom chiqqangan mashinada olib ketishibdi. Ammo bobomdan hech qanday ayb topa olmay, 3 oydan so'ng chiqarib yuborishgan ekan. Bu orada hovlidagi toklarning tagini, tomorqaga ekilgan sabzavotlarni ham kovlab tashlashibdi. Ammo

kitoblar allaqachon ishonchli qo'llarga toshirilgan ekan.

Shu tariqa ko'pgina kitoblar saqlab qolnibdi. Bu kitoblar garchi sarg'ayib, sahfalari ilvirab turgan bo'lsa-da, buvijonim ularni ko'zlariga surtib, otajonimning barmoqlari tekkan, deya e'zozlaydilar.

Buvijonimning kitoblarni bu qadar e'zozlashlarini ko'rib, men ham kitob javonimdag'i kitoblarimni olib, changlarini artib, javonga qayta taxladim.

Odina SAHOBIDDIN qizi,
Yunusobod tumanidagi
96-maktabning
5-sinf o'quvchisi

Mustaqilligimiz Andijon ixtisoslashtirilgan futbol makkabi-internati o'quvchilari kutilmagan sovg'a tayyorladilar. «Paxtakor» 55 yoshda yubiley turnirida ular faxrlar 3-o'rinni band etib, g'oliblar safidan joy oldilar. Bu g'alabadan poytaxtiga dovon oshib kelgan andijonlik bolalar va murabbiylarining ko'ngli tog'lar kabi yuksaldi.

Bugun O'zbekiston futboli tarixida alohida o'rinn tutadigan jamoa sanalgan «Paxtakor»ning tashkil topganiga, aniqrog'i, birinchis rasmiy uchrashuvini o'tkazganiga ropparosa 55 yil to'ldi. Shu munosabat bilan yurtimizda faoliyat yuritayotgan bolalar futbol makkabiali o'rtaida musobaqalar tashkilashtirildi. Ularda «Paxtakor», «Bunyodkor», Andijon ixtisoslashtirilgan futbol makkabi-internati o'quvchilari, Navoiyning «Zarafshon» bolalar futbol klubi hamda Almatining «Sesna» bolalar futbol jamoasi ishtirok etdi.

ROZK va Chilonzor maydonida bo'lib o'tgan bahslar salkam

bir hafta davom etdi. Yarim final va final bella-shuvlarida «Paxtakor» hamda Zarafshoning «Progress BO'SM» jamoalari maydonga tushdi. Chirolyi va ishonchli harakat qilgan bolalar o'yinlarini ko'rib, o'zbek futbolining ertasi

maktabda boshlagandim. Endilikda «Uzdongju» bolalar jamoasi a'zosiman. Murabbiyimiz Lutfulla aka Majidov bizga, avvalo, maydonda birlashishni, to'pni bir-birimizdan qizg'anmaslikni o'r-gatadilar. G'alabaga biz shunday erishamiz.

- Muhammadyusuf, sen maydonda jamoani juda chirolyi boshqarding. Bu usulni kimdan o'rgangans?

- Murabbiy ko'rsatmasiga amal qilaman. Jamoadoshlarim bilan maqsadimiz - chirolyi o'yinlarga erishish.

Chindan-da, ular shunday o'yin ko'rsa-tishdi. Beixtiyor andijonliklari, shashti baland shov-

vozlar-ey, deya olqishladik.

Musobaqada finalgacha raqiblarini chirolyi tarzda dog'da qoldirgan jamoalar to'qnashuvida poytaxtlik Lenur Yereme-yevning shogirdlari tengdoshlaridan mahoratlari qekanliklari isbotlab, 3:0 hisobida turnirning birinchi o'mini band etishdi.

porloq ekaniga shubha qilmadik.

Mazkur turnir mobaynida andijonlik yosh futbolchilar o'yini ko'philinkda katta qiziqish uyg'otdi. Bu jamoa safida iste'dodli futbolchilar borligi ko'zga tashlandi.

Muh. amma dyusu f. ABDUMAJIDOV, «Uzdongju» jamoasi sardori:

- Men dastlabki futbol mash'ulotlarini Andijon shahridagi 27-

SHASHTI BALAND SHOVVOZLAR

porloq ekaniga shubha qilmadik.

Mazkur turnir mobaynida andijonlik yosh futbolchilar o'yini ko'philinkda katta qiziqish uyg'otdi. Bu jamoa safida iste'dodli futbolchilar borligi ko'zga tashlandi.

Muh. amma dyusu f. ABDUMAJIDOV, «Uzdongju» jamoasi sardori:

- Men dastlabki futbol mash'ulotlarini Andijon shahridagi 27-

Turnir yakunida sovrindor jamoalarga medallar va qimmatbaho sovg'alar taqdim etildi. Shuningdek, har bir ampula bo'yicha eng yaxshilar nomi aniqlandi:

«Eng yaxshi darvozabon» - Sardor Sodiqov («Chilonzor»);

«Eng yaxshi himoyachi» - Muhammadyusuf Abdumajidov («Uzdongju»);

«Eng yaxshi yarim himoyachi» - Doniyor Hoshimov («Paxtakor»);

«Eng yaxshi hujumchi» - Begzod Sattorov («Progress BO'SM»);

«Eng yaxshi futbolchi» - Nurislom To'yshibek («Sesna»).

Qozog'istonlik Nurislomning o'yin usuli barchaga yoddi. Uning jamoasi turnirning 6-o'mi bilan kifoyalandi.

Xalqaro turnir tufayli bolalar orasidan ko'plab futbol iqtidorlari kashf etildi.

Ma'mura MADRAHIMOVA

E'TIROF

Istiqlolimizning 20 yilligi jamoamiz uchun ham qutlug' keldi. Gazetamizni mazmunan yanada boyitishga salmoqli hissa qo'shayotgan bir necha xodimlarimizning samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

8-Mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan sport bo'limi muharriri Ma'mura Madrahimova nufuzli «Atirgul» tanlovi mukofotiga sazovor bo'lgan bo'lsa, OAV xodimlari bayrami arafasida Bosh muharrir o'rinosbasi Feruza Jalilova, maktab hayoti bo'limi muharriri Gulyuz Orifjonova «Xalq ta'limi a'lochisi» nishoniga munosib topildilar.

Eng ulug', eng aziz bayramimiz arafasida yana bir xushxabar galblarimizni g'ururga to'ldirdi: «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri To'lqin Hayitov «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi» unvoniga, ma'naviyat bo'limi muharriri Yusufjon Abdullayev «O'zbekiston respublikasi mustaqilligiga 20 yil» esdalik nishoni bilan taqdirlandilar.

Hamasblarimizni samimiy qutlagan holda bu mukofotlar Sizga ham muborak bo'lsin deymiz, aziz o'quvchilar. Chunki Sizning beg'ubor olamingiz bizga hamisha ilhom bag'ishlaydi.

TAHRIRIYAT

g'URURIM BALAND

Vatan! Bu mening g'ururim, ilk bor alla tinglagan belan-chagim, toshloq ko'cham. Dalalarda mehnat qilayotgan ota-onam, qo'limga ilk bor qalam tutqazgan ustozim!

Men shunday jannatmakon diyorning baxtiyor farzandlaridan biriman. Qo'limni qayga uzatsam, yetadi. O'qiyan, o'rganaman desam, imkonlar bisyor. Yurtimiz mustaqilli bizga bilim va tafakkurimizni mustahkamlash imkonini berdi. Ko'plab tanlovlardada qatnashdim, salohi-

yatimni sinovdan o'tkazdim.

«Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Onajonim tabiat» respublika insholar tanlovidagi yutug'im Yormozor akademik litseyining jurnalistika yo'naliishiga o'qishga kirishimga imtioy yaratdi. Bu ham Istiqlol bizga bergen imkoniyat. Fursatdan foydalanib, barcha ustozlarimni, tengdoshlarimni, qolaversa, yurtimizni Mustaqillik bayrami bilan muborakbod etaman!

Sohibjon HATAMOV,
Farg'on'a viloyati, Buvayda tumani

«O'ZBEKISTON» AYLANMA KROSSVORDI

Aziz muxlis! Quyida ta'riflari bayon etilgan ona Vatanimiz mustaqilli yillariga xos bo'lgan muhim sanalarni topib, shaklning harfli xonasi atrofiga soat mili yo'naliishida raqamlar bilan yozish orqali bilimgizni sinab ko'ring.

O Qadron gazetamiz «Tong yulduzi» nomi bilan nashr etilte boshlangan yil.

Z Muhammaddaqor Abdullayev boks bo'yicha XXVII yog'i Olimpiada o'yinlari championi bo'lgan sana.

B Futbolchilarimiz ilk marotoba o'n yetti yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtafigi jahon championiata muvaffaqiyati ishtiroy etgan yil.

E «Vatan himoyachilar kuni» bayrami ilk marotoba nishonlangan yil.

K Termiz shahrida «Alpomish» qahramonlik

dostonining 1000 yilligiga bag'ishlangan bayram tantanalari bo'lib o'qigan yil.

I O'zbekiston Respublikasining «Kamolot» jamg'armasi ta'sis etilgan yil.

S Toshkent davlat universitetiga Mirzo Ulug'bek nomi berilgan sana.

T Andijonda buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi nishonlangan va unga haykal o'matilgan yil.

N Nukus shahrining 70 yilligi nishonlangan va shahar O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan yil.

O Vatanimizda «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilingan yil.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Gazetaning navbatdagi soni 12-sentabrda chiqadi.



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Axtamkul KARIMOV,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHIR HAYATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinosbasi),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31634
Buyurtma N: J 2579